

Said Abdullaxon



Said Abdullaxon

(?– 1933 yil, Krivoy Rog shahri, Ukraina)

(1918-1920)

Xiva xoni, **qo'ng'irotlardan**. Feruzning o'g'li. Ukasi *Asfandiyorxon* suiqasd natijasida o'ldirilgach, **Junaidxon** tomonidan Xivaga xon qilib ko'tarilgan (1918 yil 3-oktabr). Said Abdullaxon jismoniy jihatdan zaif va irodasiz bo'lib, Xiva xonligidagi barcha ishlarni amalda yasovulboshi *Davlatmurod* mahram orqali *Junaidxon* boshqargan. *Junaidxon* o'z kishilari: *Choriqboy* (Toshhovuz), *Safar Depmechi* (Ilyali), *Qilich Qora* (Porsu), *Goklan bola* (Mang'it), *Anna Geldibek* (Taxta), *Xalil Maxsum* (Urganch), *Shixim Sulg'un* (Xiva)larni hokim qilib tayinlagan.

Xiva xonligi qizil askarlar tomonidan bosib olingach, Said Abdullaxon taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi (1920 yil 2-fevral) va iltimosiga ko'ra, u Xivada qoldirilgan. Biroq, Xivadagi Muhammad Aminxon madrasasida qozikalon *Ibrohim Oxun* boshchiligida bo'lgan ulamolarning qizil askarlarga qarshi ko'targan isyoni (1920 yil 23-iyun)dan keyin, bu isyonga hech qanday aloqasi bo'lmasa ham Said Abdullaxon va uning harami, yaqin qarindoshlari, 10 to'ra hamda *Hikmatilla Oxun* (qoziaskar), *Obid Oxun* va boshqalar Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR)dan badarg'a qilingan (1920 yil yozi). Dastlab Moskvadagi Lubyanka – xor2; Novospassk, Ivanovo monastirlaridagi qamoqxonalarga tashlangan. 1923 yilda Said Abdullaxon va uning avlodlari Ukrainaning Yekaterinoslav gubernyasiga surgun qilingan. U surgunlikda 10 yil yashagan. So'ngra kasallanib, vafot etgan. Xorazmlik adib *Qo'zi Davat* Said Abdullaxon haqida "*Xusumat*" (Nukus, 2001) tarixiy romanini yozgan.

2023-11-05 19:15:37